

**ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ ФАНЛАР
АКАДЕМИЯСИ МИНТАҚАВИЙ БЎЛИМИ
ХОРАЗМ МАЪМУН АКАДЕМИЯСИ**

ХОРАЗМ МАЪМУН АКАДЕМИЯСИ АХБОРОТНОМАСИ

Ахборотнома ОАК Раёсатининг 2016-йил 29-декабрдаги 223/4-сон қарори билан биология, қишлоқ хўжалиги, тарих, иқтисодиёт, филология ва архитектура фанлари бўйича докторлик диссертациялари асосий илмий натижаларини чоп этиш тавсия этилган илмий нашрлар рўйхатига киритилган

2022-11/4

**Вестник Хорезмской академии Маъмуна
Издается с 2006 года**

Хива-2022

Бош муҳаррир:*Абдуллаев Икрам Искандарович, б.ф.д., проф.***Бош муҳаррир ўринбосари:***Ҳасанов Шодлик Бекпўлатович, к.ф.н., к.и.х.***Тахрир ҳайати:**

<i>Абдуллаев Икрам Искандарович, б.ф.д., проф.</i>	<i>Пазилов Абдуваеит, б.ф.д., проф.</i>
<i>Абдуллаев Баҳром Исмоилович, ф-м.ф.д.</i>	<i>Рахимов Раҳим Атажанович, т.ф.д., проф.</i>
<i>Абдуллаев Равшан Бабажонович, тиб.ф.д., проф.</i>	<i>Рахимов Матназар Шомуротович, б.ф.д., проф.</i>
<i>Абдуҳалимов Баҳром Абдурахимович, т.ф.д., проф.</i>	<i>Рашидов Негмурод Элмуродович, б.ф.н., доц.</i>
<i>Агзамова Гулчехра Азизовна, т.ф.д., проф.</i>	<i>Рўзибоев Рашид Юсуфович, тиб.ф.д., проф.</i>
<i>Аимбетов Нағмет Каллиевич, и.ф.д., акад.</i>	<i>Рўзметов Бахтияр, и.ф.д., проф.</i>
<i>Аметов Яқуб Идрисович, д.б.н., проф.</i>	<i>Садуллаев Азимбой, ф-м.ф.д., акад.</i>
<i>Бабаджанов Хушнот, ф.ф.н., проф.</i>	<i>Салаев Санъатбек Комилович, и.ф.д., проф.</i>
<i>Бекчанов Даврон Жуманазарович, к.ф.д.</i>	<i>Сапарбаева Гуландам Машариповна, ф.ф.ф.д.</i>
<i>Буриев Хасан Чутбаевич, б.ф.д., проф.</i>	<i>Сапаров Каландар Абдуллаевич, б.ф.д., проф.</i>
<i>Ганджаева Лола Атаназаровна, б.ф.д., к.и.х.</i>	<i>Сирожов Ойбек Очилович, с.ф.д., проф.</i>
<i>Давлетов Санжар Ражабович, тар.ф.д.</i>	<i>Сотилов Гойипназар, қ/х.ф.д., проф.</i>
<i>Дурдиева Гавҳар Салаевна, арх.ф.д.</i>	<i>Тожибаев Комилжон Шаробитдинович, б.ф.д., академик</i>
<i>Дўсчанов Бахтиёр, тиб.ф.д., проф.</i>	<i>Холлиев Аскар Эргашевич, б.ф.д., проф.</i>
<i>Ибрагимов Бахтиёр Тўлаганович, к.ф.д., акад.</i>	<i>Холматов Бахтиёр Рустамович, б.ф.д.</i>
<i>Жуманиёзов Зоҳид Отабоевич, ф.ф.н., доц.</i>	<i>Чўпонов Отаназар Отожонович, ф.ф.д., доц.</i>
<i>Жуманов Мурат Арепбаевич, д.б.н., проф.</i>	<i>Шакарбоев Эркин Бердикулович, б.ф.д., проф.</i>
<i>Кадирова Шахноза Абдухалиловна, к.ф.д., проф.</i>	<i>Эрматова Жамила Исмаиловна, ф.ф.н., доц.</i>
<i>Каримов Улғубек Темирбаевич, DSc</i>	<i>Эшчанов Рузумбой Абдуллаевич, б.ф.д., доц.</i>
<i>Қутлиев Учқун Отобоевич, ф-м.ф.д.</i>	<i>Ўразбоев Ғайрат Ўразалиевич, ф-м.ф.д.</i>
<i>Ламерс Жон, қ/х.ф.д., проф.</i>	<i>Ўрозбоев Абдулла Дурдиевич, ф.ф.д.</i>
<i>Майкл С. Энжел, б.ф.д., проф.</i>	<i>Ҳажиева Мақсуда Султоновна, фал.ф.д.</i>
<i>Махмудов Рауфжон Бахоридович, ф.ф.д., к.и.х.</i>	<i>Ҳасанов Шодлик Бекпўлатович, к.ф.н., к.и.х.</i>
<i>Мирзаев Сирожиддин Зайниевич, ф-м.ф.д., проф.</i>	<i>Худайберганаева Дурдона Сидиқовна, ф.ф.д.</i>
<i>Мирзаева Гулнара Саидарифовна, б.ф.д.</i>	

Хоразм Маъмун академияси ахборотномаси: илмий журнал.-№11/4 (95), Хоразм Маъмун академияси, 2022 й. – 212 б. – Босма нашрнинг электрон варианты - <http://mamun.uz/uz/page/56>

ISSN 2091-573 X

Муассис: Ўзбекистон Республикаси Фанлар академияси минтақавий бўлими – Хоразм Маъмун академияси

МУНДАРИЖА
ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ

Abdumalikova D. Leksikologiya va unga umumiy tavsif	5
Abdusamadov Z. Ways of translating phraseological units in simultaneous interpreting	7
Adambayeva N. Xushmuomalalik kategoriyasi maksimalari tadqiqiga aksiolingvistik yondashuv	14
Ahmedova M. “Riyozi-d-davla”da antroponimiyaga kiruvchi mikroko‘lam tarkibi	17
Ahmedova V.A. Erkin A‘zam dramalarida plastik obraz yaratishning o‘ziga xosligi	21
Allanazarova S.X. O‘zbek badiiy onomastikasidagi mashhur ismlarning kelib chiqish omillarining tahlili	23
Amonova Z.B. Nemis tilida ot so‘z turkumiga oid ijtimoiy-siyosiy neologizmlar tavsifi	25
Bazarov S.B. Ramzlarga burkanga hayot voqeligi zahirida inson qismati	27
Bobojonova Sh. Diskurs, ta’limiy diskurs va nutqning tarkibiy qismlari va ularning xususiyatlari ...	30
Bobomurodova Sh.E. O‘zbek xalq maqollarida qo‘llanilgan sonning ifoda imkoniyatlari	32
Do‘smatov H., Qodirova X. Askiya ustalari laqabining Xorazm shevalarida mavjud ko‘rinishlari .	34
Egamberdieva Sh. Psycholinguistic approach to the study of speech impact in advertising texts	36
Egamnazarova Z. Rieltor va broker terminlarining lingvistik xususiyatlari tadqiqi masalasi	39
Erdanova S.A. Modeling issues of “пул”, “деньги” and “money”, concepts in interlingual discourse	41
Hazratqulova O. Kognitologik konseptning tilshunoslikda tutgan o‘rni	43
Jo‘rayev H., Anvarova D. Jahon xalqlari eposida mushtarak va farqli jihatlar	46
Khujamberdieva G. Some comments on toponymic phraseological units in english and uzbek languages	48
Khusanov E.D. English literary language and dialectisms in it	50
Kosimova M.U. The development of uzbek language stylistics	52
Koziyeva I.K. Millatlararo muloqotda o'zbek antroponimlarining o'rne	54
Mamajonova E.M. Theoretical views of uzbek scientists on the use of the term "concept" in contemporary cognitive linguistics	58
Muxtorova M.I. “Qayg‘ularimiz zimistoni” (The winter of our discontent) romanida bosh qahramon talqini	60
No‘monova R., Shodiyeva A. Badiiy matn tahlilining asosiy yo‘nalishlari	62
Qayumov A., Isaqova J. O‘zbek adabiyotida bola obrazi talqini	64
Rashidova F. Sharlotta Brontening «O‘qituvchi» asarida erkak va ayol munosabatlarining o‘ziga xos xususiyatlari	66
Ruzieva M.H. Interpretation of socio-communicative and lingua-cultural aspects in translator’s thinking	68
Sayitqulova Z.X. Ingliz va o‘zbek badiiy asarlarida qahramonlararo munosabatlarning lingvokulturologik tahlili	70
Suyarova A.I. Sharof Rashidov publistikasining ijtimoiy xayotdagi o‘rni	71
Teshaboeva Z.Q., Begimova M.X. O‘quv metodik terminlarning xorijiy olimlar ishlarida o‘rganilishi	74
Toshmatov A. Bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarining chet tilida yozuv kompetensiyasini takomillashtirishning lingvodidaktik omillari	79
Xaitov X.X. “Alpomish” dostonida qo‘llanilgan dialektal oronimlarning talqin va tahlili	81
Xusanova Z. Badiiy matnda laqablarning qo‘llanilishi haqida	84
Xoliqulova G.Yo. Hindiston turkiyabon adabiyotini o‘rganishda hasanxoja nisoriy tazkirasining o‘rni va ahamiyati	89
Yadigarova S.B. O‘zbek tilidagi kiyim nomlarining semantik tahlili	92
Yakubov M.K. “Ingliz va o‘zbek dramaturgiyasida amir temur shaxsi talqini” dissertatsiyasi mavzusi haqida ayrim mulohazalar	94
Абдуллаев Х.Б. К вопросу о значении понятий «денотация» и «коннотация»	97
Абдуллаева Р. Особенности перевода медицинских терминов с русского на узбекский язык	99
Азимов У.С. Таржима ва оддий фольклоризм	102
Азимова М.С. Садриддин Салим Бухорий – эссенавис	105
Асатова Г.Р. Характеристика современных экономических терминологических систем	107
Асқарова Ж.Б. Луқмони Ҳаким – ҳикмат эғаси	110
Атаев А. Ўрта асрлар Хоразм арабийзабон адабий мухитидаги айрим ғазаллар хусусида	112
Ахадова С.С. Сравнительно-типологическое исследование юридической терминологии испанского и узбекского языков	116
Ахмедова Г.Ю. Инглизча-ўзбекча ва ўзбекча инглизча икки тилли ўқув луғатлари рангларнинг ифодаланиши	118
Ахмедова М.Х. К вопросу анализа трудностей изучения русского языка	120

DISKURS, TA'LIMiy DISKURS VA NUTQNING TARKIBiy QISMLARI VA ULARNING XUSUSiyATLARI

Sh. Bobojonova, o'qituvchi, Toshkent Tibbiyot Akademiyasi, Toshkent

Annotatsiya. O'zbek tilshunosligida xorijiy tillarni o'rganish va o'qitish ya'ni til o'qitishni rivojlantirish borasidagi tizimli ishlarga alohida e'tibor qaratilmoqda. Dunyo tilshunosligining dolzarb muammolaridan biri tilning muayyan qatlamlarida uchraydigan xususiy diskurslarning lisoniy, ijtimoiy, madaniy, antropologik, semiotik xususiyatlarini o'rganishdan iborat. SHuningdek, o'quv jarayonida hamda ta'lim sohalarida uchraydigan diskursning qo'llanish doirasini tadqiq qilish keng o'rganilayotgan muammolardandir. Shu sababdan, diskurs, diskursiv tahlil masalalarini o'rganish fanning dolzarb yo'nalishlaridan biri sifatida yangi bosqichga ko'tarilib, antroposentrik tamoyillar asosida keng tadqiq qilinmoqda. Insonning ko'p sohalarida faoliyati mohiyatan diskursiv xarakterga ega.

Kalit so'zlar: diskurs, diskursiv tahlil, ta'limiy diskurs, nutq, matn, kommunikativ nutq,

Аннотация: В узбекском языкознании особое внимание уделяется систематической работе по изучению и обучению иностранным языкам, то есть развитию преподавания языков. Одной из актуальных проблем мирового языкознания является изучение языковых, социальных, культурных, антропологических и семиотических особенностей частных дискурсов, встречающихся в определенных слоях языка. Также одной из широко изучаемых проблем является исследование сферы дискурса, встречающегося в образовательном процессе и в образовательных полях. По этой причине изучение вопросов дискурса и дискурсивного анализа поднялось на новый уровень как одно из актуальных направлений науки и широко исследуется на основе антропоцентрических принципов. Многие области человеческой деятельности носят по своей сути дискурсивный характер.

Ключевые слова: дискурс, дискурсивный анализ, учебный дискурс, текст, коммуникативный дискурс.

Abstract. In Uzbek linguistics, special attention is paid to systematic work on learning and teaching foreign languages, that is, on the development of language teaching. One of the urgent problems of world linguistics is to study the linguistic, social, cultural, anthropological, and semiotic features of private discourses found in certain layers of the language. Also, one of the widely studied problems is researching the scope of the discourse found in the educational process and in educational fields. For this reason, the study of issues of discourse and discursive analysis has risen to a new level as one of the current directions of science, and is widely researched based on anthropocentric principles. Many areas of human activity are inherently discursive.

Key words: discourse, discursive analysis, educational discourse, discourse, text, communicative discourse.

Kirish (Introduction). Zamonaviy tilshunoslikda matnni yoki muloqot jarayonini pragmatik, lingvokulturologik, kognitiv va psixolingvistik tahlillar asosida o'rganish keng tus olmoqda. Endilikda matn yoki nutq faqat semantik -sintaktik shakl jihatdan bog'langan gaplar emas balki ma'lum bir muloqot shaklini, biror shaxsga tegishli uning bilimlarini, tafakkurini, ongini va mentalitetini ifodalovchi vosita sifatida o'rganila boshlandi. XX asming so'nggi choragidan jahon tilshunosligida lisoniy faoliyat mahsuli bo'lgan har qanday nutqiy tuzilmani uni yaratuvchi va idrok etuvchi shaxs – muallif va retsipient muloqoti nuqtai nazaridan tadqiq etishga katta e'tibor qaratala boshlandi. Nutqiy tuzilmani muloqot jarayoni sifatida o'rganish *diskurs* tushunchasining yuzaga kelishiga sabab bo'ldi. [1]. Amerikalik tilshunos Zellig Xarris tomonidan birinchi marta qo'llangan *diskurs* atamasi hozirda tilshunoslikning asosiy ahamiyat kasb etadigan masalalardan biridir. Tilshunoslar diskurs tushunchasini matn bilan uzviy bog'langan deb hisoblashadi [2]. Ba'zi holatlarda esa birlashtirilgan matnlar to'plami tarzida ifodalanadi [3]. O'zbek tilshunosligida diskurs haqida tilshunos Sh.Safarov har ikkalasi ya'ni matn va diskurs insonning lisoniy nutqi ifodasini quyidagicha ta'riflagan matn va diskursning har ikkalasi ham inson lisoniy faoliyatning natijasi bo'lsa, ularni formal jihatdan og'zaki va yozma tomonidan farqlash mujmal hodisaligini ta'lidlab o'tgan. Shuningdek, ularning birini moddiy ko'rinishli hodisa, ikkinchisini esa xususiyatdan holi shaklda tasavvur qilish qiyin ekanligini keltirib o'tgan [4].

Shunday ekan, diskursga beriladigan umumiy ta'rif hamda xususiy ko'rinishlarga oid ilmiy manbaalarning tahlili ham bu boradagi tushunchalarning turli xil ekanligidan darak beradi.

Tadqiqot metodologiyasi. Diskurs tushunchasi bilan bog'liq til faktlarini o'rganish masalasi zamonaviy o'zbek tilshunosligida muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ta'limiy diskurs muloqotining shaxsiy, ijtimoiy-madaniy va maqsadli tomonlarini hisobga olgan holda o'quvchi va o'qituvchi o'rtasidagi

pedagogik muloqotning o'ziga xos xususiyatlari nazariy va amaliy tilshunoslikda tahlillar asosida kengroq o'rganilmagan. **Ta'limiy diskurs** tilni kommunikativ yo'naltirilgan holda o'qitish sharoitida nutqiy ta'limning nutq-akt komponentlarini funktsional va mazmunli tavsiflashda o'z aksini topadi. Matn ma'lum birliklardan tashkil topgan va ma'lum didaktik vazifalarni ishlab chiqish asosida qurilgan o'ziga xos konfiguratsiya sifatida tahlil qilinadi. Ta'limiy diskursda qo'llaniladigan murakkab til birliklarini ajratish va tahlil qilish bo'yicha mavjud urinishlarni qayd etish juda muhim. Ko'pincha bunday birlik sifatida matn yoki o'quv matni tanlangan bo'ladi[5].

Shunday qilib, ta'lim nutqiga kommunikativ yo'naltirilgan yondashuv uchun til birliklari, til tuzilmalari, til belgilarining kombinatsiyasi va butun nutqni qamrab oluvchi lingvistik ob'ektlar orasidagi o'ziga xos bog'liqlik muhim ahamiyatga ega. Agar tavsiflovchi tilshunoslik matn yoki nutq majmuasidan tizimga (ya'ni nutqdan tilga) yo'naltirilgan bo'lsa, ta'lim muloqotida va tarbiyaviy maqsadlarda tilning tavsifi til tizimidan nutqqa, ya'ni tildan nutqqa yo'naltirilgan bo'ladi. Shuning uchun ham o'quv vaziyatida tilni lingvistik tavsiflashda nutq mustaqil va yakuniy o'rganish ob'ekti vazifasini bajaradi. Kommunikativ ta'lim sharoitida matn holati muammosiga bag'ishlangan tadqiqotlarda matn to'g'ridan-to'g'ri maxsus darsliklarni, o'quv qo'llanmalarni shuningdek o'quv-uslubiy majmualarni yaratishga asoslangan dasturlar bilan bog'langan bo'ladi. [6]. Ma'lumki, kommunikativ yo'naltirilgan tilni o'qitishning maqsadi talabaning kommunikativ kompetensiyasini shakllantirishdir, ya'ni muloqotning muayyan shakllari va vaziyatlarida kommunikativ vazifalarni til vositalari bilan hal qilish qobiliyatini shakllantirishdan iborat[7].

Ta'limda o'qitish va o'rganish o'qituvchidan ma'lumot uzatuvchi sifatida, talabalardan bo'lsa xabarni qabul qiluvchi sifatida ishtirok etishiga sabab bo'ladi va bu jarayonda ular o'rganadi, bilimni shakllantiradi. Lingvistik muloqotda maqsad tushunchasi mavjud bo'lib bunga o'qituvchi ta'lim faoliyatida qabul qiluvchilar bilan ma'lumot, xabar almashinish va barchasidan kontekstda foydalanish hodisasi hisoblanadi. Bilimlarni uzatish, ularning ahamiyati va mazmunini berilgan til belgilari va ularning ma'nolari orqali ular o'rtasidagi aloqani o'rnatish o'qituvchining nutqi orqali ta'lim dargohida amalga oshiriladi va bu ta'lim nutqi deyiladi. Ushbu nuqtayi nazardan kuzatamizki, biz yashayotgan dunyo haqida ma'lumotlarni berish va uni yetkazish-(bilim olish bilan bog'liq bo'lgan kognitiv vazifa hamda so'zlar va ularning ma'nolariga tegishli, ular orasidagi munosabat) denominat obyektlar bilimni qabul qilishga olib keladi[8].

Tilshunoslikda yozma yoki og'zaki muloqot nutq jarayonini hosil qiladi. Muloqot bo'lishi uchun shaxsiy yoki uzaltirilgan ma'lumotlar asosida so'zlovchi o'z nutqini quradi ya'ni so'z ma'nolari orqali uning ahamiyatini yangilaydi yoki to'g'irlaydi. Muloqot jarayonida lingvistik belgi nafaqat so'z xususiyatini yoki ma'no ifodalashni shuningdek o'xshash muloqot jarayonlarida so'zning yangi ma'nolarini ifodalab ham keladi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili (Literature review)

Zamonaviy tilshunoslikda diskurs atamasini turli yo'nalishlarda o'rganish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Rus tilshunosligida ta'limiy diskurs muloqot nutq aktining tarkibiy qismlari va ularning xususiyatlari bo'yicha E. V. Stolyarova, N.A.Yulya argumentativ ta'lim nutqning tizimli xususiyatlari, V.S.Grigoreva diskurs kommunikativ jarayonda pragmatic va kognitiv jihatdan o'rganilish birligi sifatida tadqiqot ishlarini olib borishgan.

O'zbek olimlaridan L.R. Raupova dialog diskursda polipredikativ birliklar, J.Sh. Safarov diskursiv tahlil strukturasi, A. Pardayev diskurs so'zlovchi va tinglovchining o'zaro fikr almashish, bir-biriga ta'sir ko'rsatish maqsadida lisoniy va nolisoniy vositalardan o'zlari eng samarali deb hisoblagan shakl va turda amaliy foydalanish jarayoni bo'yicha, N.N.Zarilova qardosh olimlardan A.B. Tumanova, V.K. Sobirovalar tilshunoslikda diskursiv tahlil borasida ilmiy izlanishlar olib borganlar [9].

Biroq o'rganilayotgan mavzu tadqiqoti tilni kommunikativ yo'naltirilgan holda o'qitish sharoitida nutqiy ta'limning nutq-akt komponentlarini funktsional va mazmunli tavsiflashga bag'ishlanadi.

Tahlil va natijalar (analysis and results).

Til o'rganishning kommunikativ tomoniga yo'naltirilgan ta'lim muloqoti holatidagi asosiy birlik sifatida ta'lim nutqi kontsepsiyasining nazariy jihatlarini ishlab chiqish turli xil vaziyatlarda tilning ishlashining umumiy muammolari hisobga olish bilan bevosita bog'liqdir.

Ta'limda o'qitish va o'rganish o'qituvchidan ma'lumot uzatuvchi sifatida, talabalardan bo'lsa xabarni qabul qiluvchi sifatida ishtirok etishiga sabab bo'ladi va bu jarayonda ular o'rganadi, bilimni shakllantiradi. Lingvistik muloqotda maqsad tushunchasi mavjud bo'lib bunga o'qituvchi ta'lim faoliyatida qabul qiluvchilar bilan ma'lumot, xabar almashinish va barchasidan kontekstda foydalanish hodisasi hisoblanadi. Bilimlarni uzatish, ularning ahamiyati va mazmunini berilgan til belgilari va ularning ma'nolari orqali ular o'rtasidagi aloqani o'rnatish o'qituvchining nutqi orqali ta'lim dargohida amalga oshiriladi va bu ta'lim nutqi deyiladi. Ushbu nuqtayi nazardan kuzatamizki, biz yashayotgan dunyo haqida ma'lumotlarni berish va uni yetkazish-(bilim olish bilan bog'liq bo'lgan kognitiv vazifa hamda so'zlar va ularning ma'nolariga tegishli, ular orasidagi munosabat) denominat obyektlar bilimni qabul qilishga olib keladi.

Tahlillarga ko'ra so'zlovchi ya'ni (lokutor) fikrni boshqa eshituvchi yoki so'zlovchi bevosita hamda bilvosita munosabat bildirayotganga yetkazayotgan insonlar o'rtasidagi ma'lumot almashinish muloqot jarayonida amalga oshiriladi[10].

Xusola qilib aytganda, tilshunoslikda yozma yoki og'zaki muloqot nutq jarayonini hosil qiladi. Muloqot bo'lishi uchun shaxsiy yoki uzaltilgan ma'lumotlar asosida so'zlovchi o'z nutqini quradi ya'ni so'z ma'nolari orqali uning ahamiyatini yangilaydi yoki to'g'irlaydi. Muloqot jarayonida lingvistik belgi nafaqat so'z xususiyatini yoki ma'no ifodalashni shuningdek o'xshash muloqot jarayonlarida so'zning yangi ma'nolar ifodalab ham keladi.

Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations).

Taqdim etilayotgan qarashlar ta'limiy diskurs tilshunoslikda o'rganilishi lozim bo'lgan masalani ta'kidlab o'tmoqda. Ta'limiy diskursning funksional va mazmuniy xarakteristikalari kasbiy muloqot sohasidagi nutq shakllarining funksional tasnifini tashkil etuvchi ta'lim muloqoti vaziyatining maqsadli parametrlari bilan belgilanadi. O'quv nutqining ham generativ, ham ko'rgazmali turlari kasbiy muloqot sharoitida ularni qo'llashning funksional, pragmatik, uslubiy va lingvistik shartlari bilan tavsiflanadi. Tegishli tipologik xususiyatlar sifatida quyidagilar ajralib turadi: funktsional jihatdan - o'quv nutqining umumiy va xususiy funktsiyalari, lingvistik jihatdan - nutq harakatlarining turi va tabiati, shuningdek, nutq / tilni taqdim etish shakli, muloqot shakli, kommunikativ registr, axborot-tematik makon, janrning o'ziga xosligi, taqdimot usuli, nutqning ekspressiv va stilistik belgisi va hissiy ranglanishi. Dastlabki xususiyat - o'quv nutqining lingvistik tashkil etilishi: o'quv nutqi, birinchi navbatda, ifodalash nuqtai nazaridan yaxlit tarzda tuzilgan va mazmun jihatidan kommunikativ avtonom bo'lgan lingvistik ob'ektidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. A. Primov, x.Qodirova. Tilshunoslikning dolzarb muammolari: o'quv uslubiy qo'llanma.-U.:2019-72b
2. Zellig S. Harris. (2002) The structure of science information. Journal of Biomedical Informatics. Volume 35, Issue 4, August 2002, Pages 215-221.
3. Арутюнова Н.Д. Дискурс// Лингвистическая энциклопедия. -М.,1990. - С.136–137.
4. Сафаров Ш. Когнитив тилшунослик. – Жиззах: Сангзор, 2006. –90 б.
5. Стоярова Е.В. Речеактовая характеристика дискурса в учебной ситуации
6. Сафаров Ш. Прагмалингвистика. –Т.: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2008.– 285 б
7. Макарова М.М. Средства связи самостоятельных предложений в научно-технической речи современного немецкого языка: Автореф. дисс ... канд. филол. наук. – М., 1960. – 22 с.
8. Стоярова Е.В. Речеактовая характеристика дискурса в учебной ситуации
9. Раупова Л. Диалогик нутқнинг дискурсив талқини (полипредикатив бирликлар мисолида).Монография. – Т.: Фан, 2010, – 206 б.

UO'K 811.512'36/37'42

O'ZBEK XALQ MAQOLLARIDA QO'LLANILGAN SONNING IFODA IMKONIYATLARI **Sh.E. Bobomurodova, dots., Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti, Toshkent**

Annotatsiya. *Xalq maqollarida qo'llanilgan sonning ifoda imkoniyatlari tahlilga tortilgan. Sonning, asosan, dona, ba'zi o'rinlarda jamlovchi shallarining qo'llanilishiga ko'ra turlari, zidlash, umuman bo'lmaydigan hatti harakat, kuchli ta'kid, farqlash, taqqoslash ma'nolarini yuzaga chiqarganligi, uyg'unlik, ohangdoshlikni ta'minlovchi vosita sifatidagi vazifalari haqida so'z yuritilgan.*

Kalit so'zlar: *son, sonning ma'no turlari, illokutiv maqsad, zidlash, umuman bo'lmaydigan hatti harakat, kuchli ta'kid, farqlash, taqqoslash, uyg'unlik, ohangdoshlik.*

Аннотация. *Анализируются выразительные возможности числа, используемого в народных пословицах. По употреблению числа, в основном одиночного, местами, типам суммативных предложений, тому, что оно выявляет значения противоречия, несуществующего характерного движения, сильного ударения, дифференциации, сравнения, гармонии, гармонии его функции в качестве средства обеспечения обсуждаются.*

Ключевые слова: *число, типы значений числа, иллокутивное назначение, противоречие, несуществующее действие, сильное ударение, дифференциация, сравнение, гармония, гармония*

Abstract. *The expressive possibilities of numbers used in folk proverbs are analyzed. According to the use of the number, mainly single, in some places, the types of summative clauses, the fact that it brings out the meanings of contradiction, non-existent character movement, strong emphasis, differentiation, comparison, harmony, harmony its functions as a means of provision are discussed.*

Key words: *number, types of meaning of number, illocutionary purpose, contrast, non-attribute action, strong emphasis, differentiation, comparison, harmony, harmony*

Son predmetning sanog'ini va aniq miqdorini ifodalab, predmetni sanash, donalash, taqsimlab yoki taxminlab ko'rsatish uchun ishlatiladi.